

## G'IJDUVON TUMANI TARIXI VA ETNOLOGIYASI

Narzulloyeva Dilnavoz Oybekovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix ta'lim yo'naliши 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1110016>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola G'ijduvon tumani etnologiyasi, uning joylashgan o'rni. G'ijduvon atamasi kelib chiqish va ma'nolari bundan tashqari, G'ijduvon tumanida joylashgan yodgorliklar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** G'ijduvon, Harkanrud yoki Qalqonrud, "kish tuvon" "G'ijduhon", Gej, Gejzor, Gejli Davon.

## HISTORY AND ETHNOLOGY OF GIJDUVAN DISTRICT

**Abstract.** This article is about the ethnology of G'izhduvan district, its location. In addition to the origin and meaning of the term Gijduvan, information about the monuments located in the Gijduvan district is covered.

**Key words:** G'iduvan, Harkanrud or Qalkanrud, "kish tuvon" "Gijduhon", Gej, Gejzor, Gejli Davon.

## ИСТОРИЯ И ЭТНОЛОГИЯ ГИЖДУВАНСКОГО РАЙОНА

**Аннотация.** В статье представлена этнология Гиждуванского района, его местонахождение. Помимо происхождения и значения термина Гиждуван, освещаются сведения о памятниках, расположенных в Гиждуванском районе.

**Ключевые слова:** Гидуван, Харканруд или Калканруд, «киш туфон», «Гиждухон», Гей, Гейзор, Гейли Давон.

G'ijduvon tumani — Buxoro viloyatidagi tuman. Viloyatning shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan Navoiy viloyatining Konimex, Karmana, janubdan Vobkent, g'arbdan Shofirkon tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 3,94 ming km. Aholisi 19 ming kishi (2017). Tumanda 1 shahar (G'ijduvon). 14 shaharcha (Abadi, Beshtuvo, Gajdumak, Jovgari, Ko'ljabbor, Mazragan, Yuqori Rostgo'y, O'zanon, Xatcha, Chag'dari, Dodarak, Namatgaron, Yuqori Qumoq) va 14 qishloq fuqarolari yig'ini (Armechan, Taxtaxon, G'ovshun, Zarangari, Ko'kcha, Pozagari, Rayonobod, Soktari, Sarvari, Sarmijon, Ulfatbibi, Fayzulla Yunusov, Firishkent) bor. Markazi — G'ijduvon shahri.

Arxeologik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, hozirgi G'ijduvon hududida aholi turar joylari arablar bosqinidan oldin paydo bo'lган. G'ijduvon qishlog'i tarixiy yilnomalarda X asrdan boshlab tilga olinadi va u X asr geograflari tomonidan ham eslatib o'tilgan Harkanrud yoki Qalqonrud arig'idan suv olgani aytildi, Karmana ro'parasidagi Yuqori Harkana dan farqli o'laroq, Quyi Harkana deb atalgan. O'shanda ham mintaqadagi savdo markazlaridan biri va Somoniylar davlati tarkibida bo'lган. Uning nomi X asrdan boshlab arab va mahalliy manbalarda tilga olinadi. Buxoro xonligida mavjud, 32 ta rustav (tuman) ning orasida eng kattasi bo'lган.

G'ijduvon XII asrda Buxorodan 6 farsax uzoqlikdagi bozor qishlog'I bo'lган. Keyinchalik G'ijduvon joylashgan tuman G'ijduvon yoki Harkanrud deb nomlangan. Keyinchalik shaharchaga

aylangan qishloq XII asrda turkey qoraxoniylar sulolasi davrida yashagan tasavvuf vakillaridan biri Abduxoliq G'ijduvoniy vatani bo'lgani uchun ancha tanilgan.

G'ijduvon topominining kelib chiqishi haqida mahalliy aholi orasida tuli rivoyatlar mavjud. Shulardan "kish tuvon" ("kish" tojikcha ekin ekuvchi, "tuvon"-manzil), ya'ni ekin ekadigan dehqonlar manzili yoki "G'ijduhon"- ko'p qishloqlardan tashkil topgan joy ma'nosida izohlaydilar. Shahar hududi va uning atrofi qadimdan dehqonchilik rivojlangan hudud hisoblangan.

So'gd tilidaa esa Gej so'zi qamish ma'nosini bergan. Zarafshon daryosi yaqinidagi hudud qamishzor va butazor bo'lgan. Bu yerda yovvoyi qushlar, quyon va kiyiklar juda ham ko'p bo'lgan. Qipchoq dashti, Farg'ona, Xorazm vohasi ovchilari bu manzilga kelib, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan va shu hududga muqim o'mashishgan.

O'sha davr olimlari bu hududni tabiatini bilan bog'lab Gej dovon ya'ni qamishzor davoni deb ataganlar. Gejzor, Gejli Davon so'zlari bilan yillar o'tishi bilan G'ijduvonga aylangan degan taxminlar bor.

X—XI asrlarda sayyoh olimlar ushbu tuman nomini bir necha nomlar bilan tilga olgan. Xususan, olimi va sayyohi Shamsiddin al-Muqaddasiy „Ahsan at-Taqqosim fi Ma'rifat al-Akkolim“ (tarjimasi „Iqlimlarni bilishning eng yaxshi usuli“) asarida tumanni „G'ujdevor“ (yoki G'ijdevor) tarzida yozib, shahar ko'rinishidagi yirik qishloq deya ta'riflagan. Tuman 1926-yil 29-sentyabrdan tashkil etilgan. 1935—1938-yillarda tuman nomi „Akmal Ikromov“ bo'lgan.

Tadqiqotchilarning yozishicha, ushbu tumanda o'zbeklar urug'ining 92 dan 28 tasi yashaydi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, qozoq, ukrain, tatar, boshqird, turkman, arman, ozarbayjon, belorus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 60,8 kishi. Shahar aholisi 43,6 ming kishi, qishloq aholisi 195,4 ming kishi (2005).

1931-yil 17-avgustdan „Kolxoz haqiqati“ gazetasi chop etiladi Gazeta 1987-yil oktyabrdan „Oktyabr bayrog'i“, 1991-yil 1-sentyabrdan „G'ijduvon hayoti“ nomi bilan ataladi. 1990-yildan „Maorifchi“ gazetasi nashr qilina boshlagan. Kelasi yil sentyabrdan gazeta „Ma'rifat va maorif“ nomi ostida chiqqan. Lekin 1994-yil 1-yanvardan gazeta faoliti to'xtatilgan.

1960-yilda ushbu tumanda maxsus radioeshittirish redaksiyasi tashkil qilingan. 1968—1970-yillar oraliq'ida tuman radioeshittrish redaksiyalari viloyat televideniyasi va radiosи egaligiga o'tdi. 1995-yilda radio faoliyat to'xtatilgan.

Diqqatga sazovor joylar: G'ijduvon tumanida Abduxoliq G'ijduvoniy masjidi va maqbarasi (12-asr), Ulug'bek madrasasi (1432—1433), Toshmasjid va Dehqonobod xonaqosi (15—16-asrlar), Xoja Suktari masjidi (17-asr), Chorsu masjidi va boshqa qadimiy me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan.

Taniqli mahalliy aholi: Abduxoliq G'ijduvoniy — xojobon-tasavvufiy tariqatining asoschisi va nazariyotchilaridan biri;

Mahmud G'ijduvoniy — sayyoh, geograf va tarixchi olim;

Mulla Abdulqahhor — Buxoroda Qizil armiyaga qarshi harakat rahbarlaridan biri, yirik ulamo; Sadriddin Ayniy — tojik va o'zbek sovet yozuvchisi, davlat va jamoat arbobi;

## REFERENCES

1. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI. *Modern Science and Research*, 3(2), 87–93. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30711>
2. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS OF ETHNOLOGIES OF BUKHARA. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004–1011. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29523>
3. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 3(2), 500–507. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29386>
4. Toshpo'latova, S. . (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>
5. Toshpo'latova , S., & Jo'rayeva , M. . (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447–450. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31046>
6. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV'S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655–659. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2280>
7. Shuhratovna, T. S. . (2024). Linguistic Anthropology. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 432–437. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2792>
8. Toshpolatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF NATIONAL COSTUMES AND RITUALS OF TAJIKS IN THE WORKS OF M. S. ANDREYEV. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42–47. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-08>
9. Toshpo'latova , S. (2023). M. S. ANDREYEV-SCIENTIFIC CAREER. *Modern Science and Research*, 2(12), 801–807. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27191>
10. Sh.Sh.Toshpo'latova, & I.N.Naimov. (2023). M.S. ANDREYEV – O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214–1222. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/698>
11. Toshpulatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETYMOLOGY OF TAJIK MARRIAGE CEREMONY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17–23. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-05>
12. Toshpo'latova , S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA “BESHMORAK” MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395–401. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5071>
13. Naimov, I. ., & Toshpo'latova, S. . (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV “TADJKI DOLINI

- KHUF". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12–16. Retrieved from <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/205>
14. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDARICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF M.S. ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291–299. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25092>
15. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF M. S. ANDREYEV - "ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404–409. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24229>
16. Toshpo'latova, S. . (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84–89. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23903>